

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 1898,3 ming kishini tashkil etib, 2019-yil boshidan 28,5 ming kishiga yoki 1,5%ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 930,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 967,8 ming kishini 51,0 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2019- yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **28,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **41,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- 8,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **14,2 minta nikoh** va **1,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Yanvar-dekabr oylarida

**Tirik  
tug'ilganlar  
soni  
41271  
bola**

**Vafot  
etganlar soni  
8507  
kishi**

Ko'chib  
kelganlar  
**10003**  
kishi

**Ko'chib  
ketganlar  
soni  
14220  
kishi**

Yil boshiga doimiy aholi  
soni  
**1869782 kishi**  
(2019-yil 1-yanvar holatiga)

Tabiiy o'sishi  
**32764**  
kishi

Mexanik o'sish  
(kamayish)  
**-4217**  
kishi

Doimiy aholi soni  
**1898329 kishi**  
(2020-yil 1- yanvar holatiga)


## Demografik holat

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy aholi soni (1-yanvar holatiga ming kishi)**

	<i>2019y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1869,8</b>	<b>1 898,3</b>	<b>101,5</b>
Nukus sh.	314,9	319,8	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	195,3	199,1	101,9
Beruniy	187,6	191,4	102,0
Qorao'zak	52,4	52,7	100,6
Kegeyli	89,5	90,0	100,6
Qo'ng'iroq	128,3	129,9	101,2
Qanliko'l	50,3	51,0	101,4
M o'ynoq	31,3	31,8	101,6
Nukus	49,1	50,2	102,2
Taxiyatosh	72,8	73,8	101,4
Taxtako'pir	39,9	40,2	100,8
To'rtko'l	210,3	214,2	101,9
Xo'jayli	121,2	122,7	101,2
Chimboy	115,2	116,3	101,0
Shumanoy	55,6	56,1	100,9
Ellikqal'a	156,1	159,1	101,9

## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-yanvar holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 41,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,9 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega oshganligi (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 21,6 promille bo'lgan) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




### Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 8,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promille bo'lган).

### Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar- dekabr)



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,3 %i -qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 12,3 %i - o'simtalardan, 8,0 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,8 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,4 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 76,6 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 8,7 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,5 %i - tug'ma anomaliyalardan, 0,7 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,7 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,7%i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 6,1 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019-yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



# Demografik holat

## Tumanlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



■ O'simtalardan

■ Qon aylanish  
tizimi kasalliklaridan

■ Nafas olish  
a'zolari kasalliklaridan

■ Ovqat hazm qilish  
a'zolari kasalliklaridan

■ Ovqat hazm qilish  
a'zolari kasalliklaridan Baxtsiz hodisa,  
zaharlanish va jarohatlanishlardan

■ Boshqa kasallikkardan

## Demografik holat

**Tabiiy o'sish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 32,8 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,3 ming kishiga (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 31,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

**Tabiiy o'sish — 23,3 ming kishi**




**Nikoh.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri (17,6 %), Shumanay (9,8 %), Qanliko'l (9,0 %), Nukus (4,2 %) va Mo'ynoq (2,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




**Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2019-yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir (46,7 %), Qanliko'l (15,2 %), va Chimboy (6,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)**




**Migratsiya.** 2019-yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10,0 ming kishini (9,8 ming kishi respublika hududlaridan, 0,2 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 14,2 ming kishini (10,6 ming kishi respublika hududlariga, 3,6 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 4,2 ming kishi bo'lib, 2018-yilning mos davrida minus 4,0 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	10,8	10,0
Ko'chib ketganlar	14,8	14,2
Migratsiya saldosi	-4,0	-4,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chimboy (minus 869 kishi), Qo'ng'iroq (minus 535 kishi) va Xo'jayli (minus 471 kishi) tumanlarida qayd etildi.



**Poytaxtdagi demografik holat.** Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 319,8 ming kishini tashkil etib, 2019-yil boshidan 4,9 ming kishiga yoki 1,6 %ga o'sgan.

### Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan, promille)



2019- yilning yanvar- dekabr oylarida 6,0 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 18,9 promilleni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,8 ga (2018-yilning mos davrida 18,1 promille bo'lган) o'sdi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 1,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 92 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil etti. (2018-yilning mos davrida 4,4 promille bo'lган).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 4,6 ming kishini tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming kishiga o'sishi (2018-yilning mos davrida 4,3 ming kishi bo'lган) kuzatildi.


FHDYO organlarida 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 2,5 mingta nikoh va 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,9 promilleni tashkil qilib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 1,1 ga o'sdi (2018-yilning mos davrida - 6,8 promille bo'lган).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,0 promilleni tashkil etib, 2018- yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga kamaydi. 2018-yilning mos davrida 1,1 promille bo'lган.

### Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(1000 aholiga nisbatan,  
yanvar-dekabr holatiga, promille)



**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
(71) 230-82-18  
(61) 222-76-57